
O'nga yaqin fuqarolarga nogironlik aravachalari, yurish va eshitish moslamalari topshirildi

Viloyat prokuraturasi tomonidan "Ijtimoiy himoyaga muhtoj va nogironligi bo'lgan yoshlarni himoyalash" nomli tadbir doirasida Farg'ona shahridagi 1 va 5-sonli oilaviy poliklinikalarida ommaviy tibbiy-ko'riklar tashkil etildi. Tadbir davomida Farg'ona shahrida xatlov natijasida aniqlangan jami 166 nafar turli kasalliklar bilan betob bo'lgan va tibbiy ko'rikka muhtoj shaxslarning 125 nafari malakali shifokorlar tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Shundan, 18 nafarining hujjatlari o'tkazilgan tibbiy ko'rik natijalari asosida nogironlik guruhi belgilanishini ko'rib chiqish uchun viloyat tibbiy-mehnat ekspert komissiyasiga taqdim etildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan 9 nafar shaxs o'zining yashash joylarida tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, ularning 3 nafariga nogironlik aravachalari, 3 nafariga yurish moslamasi va 1 nafariga eshitish moslamalari taqdim etildi.

2022-11-11 13:11:03